

Tabiiy ipakdan yangi turdagi to‘qimalar va ularni ishlab chiqarish takomillashtirilgan resurstejamkor texnologiyasini yaratishning nazariy asoslari

Xomidov Voxidjon Obidovich t.f.f.d., (PhD),

Farg‘ona davlat texnika universiteti (O‘zbekiston, Farg‘ona)

E-mail: vohidhomidovfar@mail.ru

Annotatsiya; Ushbu maqolada tabiiy ipak asosida yangi turdagi to‘qimalarni ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish va resurs tejamkor, yuqori samarali texnologiyani yaratish masalalari yoritilgan. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar; tut, ipak qurti, pilla, sifatli xom-ipak, eksportbop, modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, raqobatbardosh, sifatli mahsulot.

Kirish. Milliy iqtisodiyotning eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlaridan biri hisoblangan ipakchilik sanoatida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Tabiiy ipakning ekologik tozaligi, yengilligi va nafisligi uni xalqaro bozorda talabgir qiladi. Bu talabga javob berish uchun yangi texnologiyalar joriy etilishi, mahsulotlar assortimenti diversifikatsiya qilinishi lozim.

Ishning dolzarbligi. To‘quv dastgohida mato hosil bo‘lish o‘rilishlarini aniqlash, to‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil yetish uchun muhimdir. Ishqalanish kuchlarining o‘zaro ta’siri va ip tizimlarining o‘zaro deformatsiyasi hodisalarining murakkabligi tufayli bu muammo hali universal shaklda analitik tarzda hal qilinmagan. Bizning tahlilimiz shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyotining zamonaviy davrida va shiddatli raqobat kuchayib borayotgan davrda, sodir bo‘layotgan jarayonlarni iloji boricha real tavsiflovchi va ular asosida maqbul parametrlarni ishlab chiqadigan mato shakllanishining yangi matematik modelini ishlab chiqmasdan, mahsulotlarning raqobatbardoshligini va ularning jahon bozoriga chiqishini ta’minlash mumkin emas.



Mamlakat mustaqilligiga erishilgandan keyin ipakchilik tarmog‘ida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga, yangi korxonalar qurish va mavjudlarini modernizatsiyalashga, jahon bozorida xaridorgir va raqobatdosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish va ularning turlarini ko‘paytirishga qaratilgan keng ko‘lamli tarkibiy o‘zgartirishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga tut ipak qurti ozuqa bazasi va pilla xomashyosi yetishmasligi tarmoqni yanada rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda, buning natijasida respublika pillakashlik va shoyi to‘qish korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini xomashyo bilan ta‘minlash darajasi pastligicha qolmoqda.

Ipakchilik tarmog‘ini yanada isloh qilishni ta‘minlash, ipakchilik sanoatini modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va jadal rivojlantirish jarayonlarini faollashtirish uchun, pillani chuqur qayta ishlash negizida tashqi bozorda barqaror talab qilinayotgan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish va tovarlar turini kengaytirish, shuningdek, tarmoqni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish lozimdir.

Zamonaviy to‘qimachilik korxonalarida dastgohlar mashinasozligi sohasida dunyoning yetakchi mamlakatlaridan ishlab chiqilgan turli xil dastgohlarni ishlatishda iplarning kuchlanishini o‘rganish, uning yakuniy natijalari ipning uzilishini kamaytirishga erishilsa, dastgohning ish unumdorligi ko‘tarilsa shu bilan mahsulot sifati yaxshilanadi.

Tadqiqot ishlari quyidagi bosqichlar bo‘yicha bajarilishi lozim:

- tabiiy ipakdan to‘qimalar ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha yangi nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari olinadi;
- xom ashyoni to‘qishga tayyorlashda ipak iplarini qayta ishlash texnologik jarayonlarini asosiy omillari aniqlanadi;
- iplarni pishitish jarayoni o‘ramasini optimal turi aniqlanadi;
- tabiiy ipakdan yangi turdagi ko‘ylakbop to‘qimalar strukturasi yaratiladi
- tabiiy ipakdan to‘qimalar ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar natijalari olinadi;
- xom ashyoni to‘qishga tayyorlashda ipak iplarini qayta ishlash texnologik jarayonlarini asosiy omillari aniqlanadi
- tabiiy ipakdan yangi turdagi to‘qimalar ishlab chiqarish takomillashtirilgan resurstejamkor texnologiyasi yaratiladi;

- takomillashtirilgan texnologiya bo'yicha yangi turdagi to'qimalar namunalari ishlab chiqariladi, ularning sifat ko'rsatkichlari va texnologiyaning ish samaradorligi baholanadi.

Yangi texnologiya bo'yicha tabiiy ipak to'qimalarini tayyorlash jarayonlarini o'ziga xos jixatlarini taxlili va tadqiqotida, yangi texnologiyani inobatga olgan xolda tabiiy ipak to'qimalarini tayyorlash texnologik jixozlarini ish rejimlarini va maqbul omillarini ishlab chiqish va tabiiy ipakdan yangi turdagi ko'ylakbop to'qimalar strukturasi va ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tabiiy ipakdan yangi turdagi to'qimalar ishlab chiqarish, takomillashtirilgan resurstejamkor texnologiyasini yaratishda, takomillashtirilgan texnologiya bo'yicha yangi turdagi to'qimalar namunalari ishlab chiqarish, ularning sifat ko'rsatkichlari va texnologiyaning ish samaradorligini baholash mumkin.

Dunyoda mato ishlab chiqarish uchun mashina va texnologiyalarni yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan, xususan, dastgohda mato hosil qilishning yangi usulini ishlab chiqish; dastgohning asosiy va yordamchi mexanizmlarining yangi dizaynlarini, dastgohni to'ldirish uchun maqbul parametrlarni va xususiyatlarga ega matolarning yangi assortimentlarini ishlab chiqish muhim vazifalardir.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari dastgohlarda yangi mato elementini shakllantirish jarayonining intensivligining matematik tavsifini beradi. Dastgohlarda yangi mato elementini shakllantirish jarayonining matematik tavsifi ham olinadi, bu esa texnologiyaning intensivligini baholashga imkon beradi, yangi turdagi to'qimalarning fizik mohiyatini ochib beradi va dastgohlardagi jarayonning meyoriy oqimini ta'minlash uchun dastgohning dizayni va texnologik parametrlarining muqobillashtirish ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. V.O. Xomidov, G.N. Valiev .Tandalash jarayonida tabiiy ipak ipi ballonlanishining matematik modeli.//Farg'ona politexnika instituti Ilmiy texnika jurnali. 2020, T.26, №5 46-49-b.
2. Sevost'yanov A.G. Методы и средства исследования механико-технологических процессов текстильной промышленности. – М.: Легкая индустрия, 1980. – 392s.

3. Xomidov V. O, Tabiiy ipak iplarini tandalash jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar. //«To'qimachilik tolalarini chuqur qayta ishlashning innovatsion yechimlari» Respublika ilmiy-texnikaviy anjuman materiallari to'plami, 19-20 oktyabr 2020 yil. – Farg'ona 158-160b.

4. Mirboboeva, G., Isroilova, N., & Rakhmonova, M. (2024). A COMPARATIVE ANALYSIS OF FLAX FIBRE FOR INDUSTRIAL APPLICATIONS. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(10), 11-16.

5. Tursumatova, S., Tursunov, D., & Isroilova, N. (2023). Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics. Eurasian Research Bulletin, 17, 204-209.



Research Science and
Innovation House

